



YASHIL IQTISODIYOTNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Xamrayev Sarvar Choriyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinib, unda yashil iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishni uyg'unlashtiruvchi tizim sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019 – 2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasidagi maqsad va vazifalar, xususan, energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, davlat investitsiyalari va xarajatlarida yashil mezonlarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, Orolbo'yidagi ekologik inqirozni yumshatish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi yo'nalishlar yoritilgan. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotning barqaror taraqqiyot, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni ta'minlashdagi strategik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, strategiya, taraqqiyot, ekologiya, ijtimoiy farovonlik, investitsiya, energiya.

Yashil iqtisodiyot zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiruvchi muhim tizim sifatida shakllanmoqda. Uning asosiy maqsadi sayyoramizning tabiiy resurslarini, atrof-muhitni va ekologiyani saqlash bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishdir. Yashil iqtisodiyot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini ekologik xavfsiz usullar bilan uyg'unlashtirib, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish boshqaruv tizimining sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish yo'liga o'tishda samarali boshqaruv, aniq rejalashtirilgan dasturlar va investitsiya muhitining shaffofligi muhim ahamiyatga ega. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy muhitni tahlil qilish va optimallashtirish orqali yashil iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlaydi [1]. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" [2]gi PQ-4477-sonli qarori qabul qilinib, unda barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik, resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish, iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun "yashil" vositalar va yondashuvlarni qo'llash ustuvorligi, eng muhim tarmoqlarda raqobatbardoshlikni

oshirish va ko'rsatkichlarni yaxshilash, "yashil" ish o'rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish, resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash kabi tamoyillar uzoq muddatli istiqbolda "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun asos sifatida belgilab olindi.

Bundan tashqari, mazkur strategiyaning asosiy maqsad va vazifalari sifatida quyidagilar mustahkamlandi:

- texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlarni kiritish;
- davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;
- ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga "yashil" iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish;
- "yashil" iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Birinchidan, texnologik modernizatsiya va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish orqali energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilgan [3]. Ikkinchidan, davlat investitsiyalari va xarajatlarini ilg'or xalqaro standartlarga mos "yashil" mezonlar asosida rejalashtirish iqtisodiy faoliyatning ekologik barqarorligini ta'minlaydi. Uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish, yashil iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlarini mustahkamlashga xizmat qiladi [4].

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga xizmat qiladigan strategik omil hisoblanadi. U jamiyat hayotida barqaror taraqqiyot va kelajak avlodlar uchun xavfsiz muhit yaratishning muhim vositasi sifatida e'tiborga loyiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergasheva, Ruxshona. “Yashil iqtisodiyot haqida tushuncha, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati”. Nordic_Press 3.0003 (2024).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-4539502>
3. Mustafaqulov Yangiboy Bo‘riqulovich, and Qilichov Sobir Savriyevich. “Yashil iqtisodiyot” va uning rivojlanish bosqichlari” Eurasian Journal of Academic Research, vol. 4, no. 7, 2024, pp. 900-904.
4. Giyazova, N. B., & Dildora, I. (2024). Yashil iqtisodiyot va uning kelajakdagi istiqbollari. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 3(29), 213-217.